

## **YAPONIYA TA'LIM TIZIMIDA GENDER TENGLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHGA OID YONDASHUVLAR**



**<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2026-20-252-255>**

**Suyunova Barno Safarali qizi**

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti,  
Tashqi siyosat va xalqaro iqtisodiy munosabatlar instituti,  
“Xalqaro munosabatlar” kafedrasida katta o‘qituvchisi,  
siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu ilmiy maqolada Yaponiya ta'lim tizimida gender tenglik madaniyatining shakllanishi, institutsional va pedagogik innovatsiyalar orqali uning mustahkamlanishi tahlil qilinadi. Tadqiqot gender tenglik masalasini tarixiy-evolyutsion, institutsional va madaniy kontekstda ko'rib chiqib, ta'lim siyosati, o'quv dasturlari hamda akademik muhitdagi zamonaviy yondashuvlarning samaradorligini ilmiy dalillar asosida ochib beradi. Maqola rasmiy hujjatlar, akademik maqolalar va monografiyalardan asosida ishlab chiqilgan bo'lib, Yaponiya tajribasining nazariy va amaliy ahamiyatini yoritadi.*

**Kalit so'zlar:** *gender tenglik, Yaponiya ta'lim tizimi, ta'lim siyosati, Womenomics, ta'lim sotsiologiyasi.*

### **ABSTRACT**

*This article analyzes the formation of a culture of gender equality within Japan's education system and its consolidation through institutional and pedagogical innovations. The study examines the issue of gender equality within historical-evolutionary, institutional, and cultural contexts, and, based on empirical evidence, reveals the effectiveness of contemporary approaches in education policy, curricula, and the academic environment. The article is developed on the basis of official documents, academic journal articles, and monographs, highlighting the theoretical and practical significance of Japan's experience.*

**Keywords:** *gender equality, Japanese education system, education policy, Womenomics, sociology of education.*

### **АННОТАЦИЯ**

*В данной научной статье анализируется процесс формирования культуры гендерного равенства в системе образования Японии и её укрепление посредством институциональных и педагогических инноваций. Исследование рассматривает проблему гендерного равенства в историко-эволюционном, институциональном и культурном контекстах, а также на основе научных данных раскрывает эффективность современных подходов в образовательной политике, учебных программах и академической среде. Статья подготовлена на основе официальных документов, научных статей и монографий и освещает теоретическое и практическое значение японского опыта.*

**Ключевые слова:** *гендерное равенство, система образования Японии, образовательная политика, Womenomics, социология образования.*

So‘nggi o‘n yilliklarda gender tenglik masalasi ijtimoiy fanlar, xususan ta'lim sotsiologiyasi, ta'lim siyosati va gender tadqiqotlarining markaziy mavzularidan biriga aylandi. Xalqaro miqyosda olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki,

gender tenglik darajasi yuqori bo'lgan jamiyatlarda inson kapitalining sifati, ijtimoiy barqarorlik va innovatsion rivojlanish ko'rsatkichlari nisbatan yuqori bo'ladi. Shu nuqtai nazardan, ta'lim tizimi gender tenglik madaniyatini shakllantirishda nafaqat vositachi institut, balki gender munosabatlarini qayta ishlab chiqaruvchi va transformatsiya qiluvchi muhim ijtimoiy mexanizm sifatida namoyon bo'ladi.

Gender tenglikni ta'lim orqali ta'minlash masalasi ayni bir davlat, xususan, Yaponiya misolida tahlil qilindi. Bir tomondan, Yaponiya ta'lim tizimi savodxonlik darajasi, akademik natijalar va institutsional barqarorlik bo'yicha xalqaro reytinglarda yetakchi o'rinlarni egallab kelmoqda. Ikkinchi tomondan esa, mamlakat gender tenglikning umumiy ko'rsatkichlari, ayniqsa yetakchilik lavozimlarida ayollarning ishtiroki bo'yicha rivojlangan davlatlar orasida past o'rinlarni egallaydi. Ushbu paradoks Yaponiya ta'lim tizimida gender tenglik masalasini chuqur ilmiy tahlil qilish zaruratini yuzaga keltiradi.

### **Muhokama va natijalar**

Yaponiya ta'lim tizimida gender tenglikning shakllanishi bosqichma-bosqich amalga oshgan. Urushdan keyingi davrda joriy etilgan ta'lim modeli, majburiy ta'limning kengaytirilishi qizlar va o'g'il bolalar uchun teng imkoniyatlar yaratdi. Statistik ma'lumotlar o'rta va oliy ta'limga qamrov darajasida gender tafovutining deyarli yo'qolganini ko'rsatadi [4]. So'nggi o'n yilliklarda o'quv dasturlariga integratsiya qilingan gender tenglik, inson huquqlari va ijtimoiy adolatga oid modullar nafaqat ijtimoiy fanlar, balki tabiiy fanlar va texnologiya fanlarida ham stereotiplarni kamaytirishga qaratilgan.

Simone de Bovuar tomonidan ilgari surilgan “ayol bo'lib tug'ilmaydi, balki ayolga aylanadi” degan nazariy tezis [1] Yaponiya ta'lim tizimida kuzatiladigan gender sotsializatsiyasi jarayonlarini tahlil qilishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Yaponiya maktablarida o'quvchilar gender rollarini nafaqat dars mazmuni orqali, balki maktab hayotining kundalik amaliyotlari – intizom qoidalari, mehnat taqsimoti, sinfdan tashqari faoliyat va pedagogik munosabatlar orqali ham o'zlashtiradilar.

Yaponiyada so'nggi yillarda oliy ta'lim muassasalarida ham gender tenglikni ta'minlashga qaratilgan institutsional mexanizmlar kuchaytirildi. Xususan, universitetlarda gender tenglik markazlarining tashkil etilishi, ayol tadqiqotchilarni qo'llab-quvvatlash dasturlari va akademik muhitda teng imkoniyatlarni kengaytirishga qaratilgan siyosatlar gender konstruksiyasining institutsional darajada qayta shakllantirilayotganini ko'rsatadi [2]. Bu jarayon genderni qat'iy va o'zgarmas identitet sifatida emas, balki ijtimoiy sharoitlar ta'sirida transformatsiyalanadigan hodisa sifatida talqin qilish imkonini beradi. 1997-yildan 2000-yilgacha bo'lgan davrda Milliy Ayollar Ta'lim Markazi (NVEC) tomonidan o'tkazilgan solishtirma so'rov natijalari shuni ko'rsatdiki, universitetlar va kichik kollejlarda hamda boshqa oliy ta'lim muassasalari orasida ayollar tadqiqotlariga oid darslar taklif qiladigan 1192 ta muassasadan 344 tasi (ya'ni 28,9%) bunday kurslarni o'qitgan. Ushbu to'rt yillik davr ichidagi xronologik solishtirma

sonlarning tez sur'atda oshganini ko'rsatadi [3]. Biroq, sonning oshishi an'anaviy mavzularni ham o'z ichiga olgan bo'lishi mumkin, ya'ni ular odatda gender bilan bog'liq bo'lmagan, ammo gender nuqtai nazarini qisman o'z ichiga olgan mavzular bo'lgan. Shu sababli NWEF tahlillari gender fanlari sonining oshishi katta o'zgarishni ko'rsatmaganini va har bir universitet o'z hisobotlarida turlicha ma'lumot berganini anglatadi. 2013-yilda Yaponiyada demografik va iqtisodiy muammolarga javoban ishga tushirilgan “Womenomics” siyosatining asosiy maqsadlaridan biri ayollarning mehnat bozoridagi ishtirokini oshirish va ularni boshqaruv lavozimlarida ko'proq vakil qilishdan iborat edi. Shuning uchun, “Womenomics” o'z maqsadlariga erisha olmagan deyish mumkin. Garchi ayollarning mehnat bozoridagi ishtirok etish darajasi 1986-yildan beri oshib, 2016-yilda 66% ga yetgan bo'lsa-da, bu o'sish asosan muddatsiz yoki shartli ish o'rinlari sonining ko'payishi bilan birga kechdi [6]. Shu bilan birga, “Womenomics” neoliberal kontekstda, asosan iqtisodiy o'sishga qaratilgan bo'lib, haqiqiy ijtimoiy tenglikni ta'minlashga yo'naltirilmagan.

Yaponiyada qizlar va yigitlarning ta'lim sifati, universitetlar reytinglari bo'yicha o'lchanadigan darajada ham keskin farq mavjud. Masalan, Times Higher Education va Tokio Universiteti ma'lumotlariga ko'ra, 2019-yilda Yaponiyaning eng nufuzli universitetlarida qizlar talabalarning to'rtidan biridan ko'pini tashkil etmagan. Xususan, Tokio Universitetida 19 %, Kioto Universitetida 24 %, Waseda Universitetida esa 36 % qizlar bo'lgan [5]. Hozirgi kunda ta'lim oluvchilar orasida qizlar sonini oshirish bo'yicha ishlar amalga oshirilmoqda.

Yaponiya ta'lim tizimi gender tenglik siyosatini amalga oshirishda institutsional islohotlar va pedagogik amaliyotlar uyg'unligini namoyon etuvchi muhim tajriba sifatida e'tirof etiladi. Genderning ijtimoiy-madaniy jihatdan konstruksiya qilingan hodisa sifatida talqin qilinishi Yaponiya ta'lim siyosatida asta-sekinlik bilan o'z aksini topib, an'anaviy gender rollarini qayta ko'rib chiqishga qaratilgan yondashuvlarning shakllanishiga zamin yaratdi. Ta'lim tizimi bu jarayonda nafaqat bilim beruvchi institut, balki gender identifikatsiyasi va ijtimoiy me'yorlarning shakllanishida muhim ijtimoiy makon sifatida faoliyat yuritmoqda.

Xulosa qilib aytganda, Yaponiya ta'lim tizimi misolida gender tenglik siyosati genderning ijtimoiy konstruksiya sifatidagi tabiatini amaliy jihatdan namoyon etadi. Ta'lim mazmuni, institutsional tuzilmalar va pedagogik innovatsiyalar orqali gender identifikatsiyasi uzluksiz ravishda qayta ishlab boriladi. Ushbu tajriba gender tenglikni ta'minlashda ta'lim tizimining transformativ salohiyatini ochib berib, boshqa mamlakatlar uchun ham muhim nazariy va amaliy xulosalar chiqarish imkonini beradi. Zamonaviy Yaponiyada ta'lim va ish bozorida gender tengligi hali to'liq ta'minlanmagan bo'lsa-da, Womenomics siyosati va ayol o'qituvchilarni jalb qilish tashabbuslari muhim qadamlar sifatida baholanishi mumkin. Biroq barqaror ijtimoiy o'zgarishlar faqat iqtisodiy ko'rsatkichlarni oshirish orqali emas, balki madaniy va institutsional islohotlarni ham o'z ichiga olgan kompleks yondashuv orqali amalga oshirilishi lozim.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Butler J. Gender Trouble: Feminism and the Subversion of Identity. Routledge, 1990. [https://raggeduniversity.co.uk/wp-content/uploads/2025/11/1\\_xtract\\_Gender-trouble-\\_feminism-and-the-subversion-of-identity-Judith-Butler.pdf](https://raggeduniversity.co.uk/wp-content/uploads/2025/11/1_xtract_Gender-trouble-_feminism-and-the-subversion-of-identity-Judith-Butler.pdf)
2. Kakei H., Yamauchi F. Gender equality in Japanese higher education: Challenges and policy responses. Higher Education. 2023, - 86(4), – P. 789-807.
3. Kawana S. Gender equity policies in higher education in Japan. – Queensland University of Technology, 2010. – P. 53.
4. Okada A. Education reform and equal opportunity in Japan //Journal of International and Comparative Education (JICE). – 2012. – P. 116-129.
5. Rebrey S. M. The Evolution of Japanese policy towards women //В Российском обществе. – 2025. – С. 48.
6. Yenilmez M. I., Yoshida H., Chen F. Womenenomics: Gender Equality as a Development Approach in Japan //Yildiz Social Science Review. – 2025. – T. 11. – №. 2. – P. 87-98.